

Soʻz va Sozning Uygʻunligi

Söz ve Sazın Uyumu

Harmony of Words and Music

Izzat MATYAKUBOV 

Atatürk Üniversitesi, Türk Müsiki Devlet
Konservatuarı, Müzikoloji Bölümü, Erzurum,
Türkiye

Atatürk University, Turkish Music State
Conservatory, Department of Musicology,
Erzurum, Türkiye



Geliş Tarihi/Received 05.04.2024
Kabul Tarihi/Accepted 24.05.2024
Yayın Tarihi/Publication Date 30.05.2024

Sorumlu Yazar/Corresponding author:
Izzat Matyakubova
E-mail: izzat-83@mail.ru

Atif: Matyakubov, I. (2024). Soʻz va
sozning uygʻunligi. *Comparative Turkish
Dialects and Literatures*, (5), 17-25.

Cite this article: Matyakubov, I. (2024).
Harmony of words and music.
*Comparative Turkish Dialects and
Literatures*, (5), 17-25.



Content of this journal is licensed under a
Creative Commons Attribution-
NonCommercial-NoDerivatives 4.0
International License.

ANNOTATSIYA

Soʻzning kuchi va qudrati insoniyatga, tirik mavjudotga qanday taʼsir qilsa, sozning kuchi va qudrati ham undan kam taʼsir etmaydi. Binobarin soʻz va soz uygʻunlikda ijro qilinsa nafaqat insoniyat, balki butun nabodot olami bundan bahramand boʻladi. Dunyo olimlari buni barcha jihatlarini oʻlchab tadqiqotlar olib borishgan. Ushbu tadqiqotlar kelajakda oʻzining sermahsul natijalarini, turli yangi sohalarni kashf etilishini taqozo etgan. Ushbu cholgʻu va ogʻzaki ijro turkiylarning epik anʼanalari bilan birga bugungi kungacha saqlanib qolgan va ijtimoiy va madaniy oʻzgarishlarni oʻzida mujassam etgan Xuddi oʻsha payt har bir dinning kirib kelishi, uning insonlar ongiga taʼsir qilishi, shakllanishi, omma oldiga chiqishi va diniy tadbirlar oʻtkazilishi hamda shu singari jihatlar aynan soz va soʻz uygʻunligida ijro etilgan va ijro etilib kelinmoqda. Otashparastlik, Budda, Xristiyan va Islom kabi dinlarning har jabxasida soʻz va soz uygʻunligi ijrosini kuzatishimiz mumkin. Bundan tashqari insoniyat tarixidagi maishiy hayotida soʻz va soz uygʻunligi ijrosi doimo faol rol oʻynab kelgan. Insonning tugʻilishidan to vafot etguniga qadar boʻladigan marosimlar, anʼanalari, maʼnaviy-maʼrifiy, taʼlimiy-tarbiyaviy ishlar shular jumlasidandir. Maqolamizda aynan shu va boshqa tadqiq qilingan dolzarb masalalar haqida soʻz yuritiladi.

Kalit Soʻzlar: Nazm va navo, zikr va jaxr, doston, uygʻunlik

Öz

Sözün gücü ve kudreti insana ve diğer canlılara ne kadar tesir ediyorsa sazın gücü ve kudreti de o kadar tesir etmektedir. Söz ve saz birlikte icra edildiğinde hem insan hem bitkiler aleminin bundan faydalanacağı bilinmektedir. Bu mevzu bütün cihetleriyle birlikte bilimsel incelemelere konu olmaktadır. Bu inceleme sonuçları gelecekte farklı mevzuların keşfine kapı aralayacaktır. Bahse konu olan bu sazlı ve sözlü icra, Türkler de destancılık geleneği ile beraber günümüze kadar ulaşmış, toplumsal, kültürel değişimleri bünyesinde barındırmıştır. Aynı zamanda her bir dinin insanlar tarafından kabul edilişi, bilinçaltına tesiri ve bilinçaltında şekillenışı, değişik ritüeller biçiminde toplum içinde yaşatılması ve benzeri cihetler eskiden beri sazlı ve sözlü icralara da yansımıştır. Ateşperestlik, Budizm, Hristiyanlık, İslam vb. dinlerin belli sahalarında sazlı ve sözlü icra uyumunu görmek mümkündür. Bununla birlikte insanlık tarihi boyunca saz ve söze dayalı icra uyumu daima etkin bir rol oynamıştır. Bu bağlamda insanın doğumundan ölümüne kadar cereyan eden merasimler, gelenekler, manevî, terbiyevî ve eğitimsel faaliyetleri hatırlatmak yeterlidir. Makalede bu şekilde söz ve saz uyumu ve buna bağlı hususlar üzerinde durulmuştur.

Anahtar Kelimeler: Nazım ve ahenk, zikir ve cehr, destan, uyumluluk

ABSTRACT

As much as the power and power of the word affects human beings and other living creatures, the power and power of the saz affects them as much. It is known that when the word and the instrument are performed together, both human beings and the plant world will benefit from it. This subject is subject to scientific analyses with all its aspects. The results of these analyses will open the door to the discovery of different subjects in the future. It is possible to see the harmony of instrumental and oral

performances in certain areas of religions such as Atheism, Buddhism, Christianity, Islam, etc. This instrumental and oral performance has reached to the present day with the epic tradition in the Turks and has embodied social and cultural changes. This instrumental and oral performance has reached to the present day with the epic tradition in the Turks and has embodied social and cultural changes. At the same time, the acceptance of each religion by people, its influence on the subconscious and its shaping in the subconscious, its survival in society in the form of different rituals and similar aspects have been reflected in instrumental and oral performances since ancient times. However, throughout human history, the harmony of instrumental and verbal performance has always played an active role. In this context, it is enough to remind the ceremonies, traditions, spiritual, educational and educational activities that take place from birth to death. In this way, the article focuses on the harmony of word and instrument and related issues.

Keywords: Verse and harmony, dhikr and cehr, epic, harmony

Kirish

“Tarix - millat ko‘zgidir” bu fikr bejizga aytilmagan. Chunki, tarix orqali ajdodlarimiz kim ekanligi, qahramonliklari, urf-odatlarini, an‘analari, ma‘naviyati, taraqqiyot jarayoni va kelajagi haqidagi ma‘lumotga ega bo‘lamiz. “So‘z va soz uyg‘unligi ijrosining chuqur ildizlari tarixi”ni o‘rganish orqali esa so‘z san‘ati, milliy sozanda va xonandalikni, ota-bobolarimizning ulkan musiqiy merosini teran anglab yetishimizga zamin yaratadi.

Inson ovozi vositasida yaralgan va aynan ovozdagi ijro etishga mo‘ljallangan san‘at namunalari paydo bo‘lishi cholg‘u musiqasiga nisbatan ancha qadimiy bo‘lib tarixi ibtidoiy zamonlarga borib taqaladi. Yaqin va O‘rta Sharq mintaqalarida, xususan, Markaziy Osiyoda joylashgan ko‘hna davrlarda vujudga kelgan professional musiqa san‘atida yakkaxonlik va hamnafaslik ijro shakllari qadimdan qo‘llanilgan. Ijro shaklining oddiy ko‘rinishlari mahalliy mehnatkash aholi orasida folklor musiqasi negizida, kasbiy tus olgani esa saroyning madaniy, ko‘ngilochar hamda joriy etilgan zardushtiylik marosimlarida ancha erta paydo bo‘lgan (Malikova, 2023, b. 21-27).

Dinlar va So‘z- Sozning Uyg‘unligi

Zamonlar o‘tgani sayin “Otashparastlik” dini bora-bora rivojlanib, madaniylashib boshqa dinlarga o‘rnak ko‘rsata boshlaydi va natijada “Zardushtiylik” dini va uning muqaddas kitobi “Avesto” dunyoga keladi. Ularda jam bo‘lib kuylash, jamoa bo‘lib olov atrofida zikr tushish ulug‘langan, turli marosimlarda yakka va jamoa bo‘lib kuylanadigan o‘ziga xos qo‘shiqlar, mavsumiy qo‘shiqlar bo‘lgan. Professor P. Klark va O‘zbekiston Davlat konservatoriyasi professori A.X. Xakimovalarning “Zorostrizm” nomli kitobida aytilishicha: Gat madhiyalari orqali o‘sha davrda musiqa yordamida insonlarga yaxshilik urug‘i sochilgan va keyingi avlodlarga yetkazish uchun ustoz - shogird an‘analaridan foydalanilgan. Nimaga aynan musiqa? Kitobning quyidagi jumladan javob izlaymiz: “Ushbu Gatlar diniy matnlar asosida tuzilgan 17 madhiyadan iborat diniy madhiyalar to‘plami. Musiqiy kuylash jarayonida matnlardagi harflarning o‘rni juda katta. Aynan matndagi harflar tovushlarni qanday og‘izdan chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan o‘ziga xos tizim yaratilgan. Ulardan misol: Unli harflar tovush cho‘zuvchi harflar hisoblanilgan ya‘ni a, o, u, i, e va hokazo. Undosh harflar esa t, d, p, k, b va hokazo tovush kesuvchi, boshqacha qilib aytganda tovush cho‘zilmaydigan harflar hisoblangan. Bundan tashqari tovushni yuqoriga chiqaruvchi va pastga tushiruvchi, dinamik ahamiyatga ega va boshqa bir qator vazifalarni bajaruvchi harflar ham mavjud bo‘lgan”. Bulardan tashqari har bir bo‘g‘inning ritmik tuzilishi musiqaviy ohangning o‘lchovlariga ta‘sir qilgan. Zamonamiz tili bilan aytganda barmoq vaznga to‘g‘ri keladi (Klark & Hakimova, 2010, b. 10-18).

Keyinchalik paydo bo‘lgan Budda dini va uning yo‘nalishlarida ham “Kirtan”, “Arati” nomli yakka so‘z aytuvchi va jamoa bo‘lib qaytariladigan ibodat turkumi mavjud. Kirtan va Aratilar ilohiy duolari, aytimlarni, o‘ziga xos ohangni saqlagan holda qiroat bilan kuylanadi. Jamoa esa uning so‘zlarini aynan yakka ijrochi ijro etganide takrorlaydi. Jamoa bo‘lib qaytarib mutolaa qilish “Bxajani” deyiladi. Buddaviylikda ham jamoa bo‘lib aytiladigan o‘ziga xos marosim qo‘shiqlari, mavsumiy qo‘shiqlar mavjud. Xristian dinining “Pravoslav” va “Katolik” oqimlaridagi diniy marosimlarida ham saroy qo‘shiqlari, diniy va xalq qo‘shiqlarini kuylash jarayonini kuzatish mumkin (Matyakubov, 2018, b. 12).

Islom dinida ham Farz namozlari imomga iqtido qilingan (ergashgan) holatda birgalikda jamoa bo‘lib o‘qiladi va qiroat qilinadi. Jamoa bo‘lib ruku, sajdaga bosh qo‘yiladi va “Fotixa surasi” dan so‘ng “Omin” so‘zini jamoa bo‘lib aytish, takbir aytish va shu kabi Allohga zikr keltirish, jamoa bo‘lib so‘zlarni takrorlash jarayonlarni kuzatishimiz mumkin. Qolaversa, Juma, Hayit namozlarida “Xutba” o‘qish jarayonida imomning duolaridan so‘ng “Tashaxud” duosi ham jamoa bo‘lib qaytariladi. “Mavlud”, “Mushkil kushod” kabi diniy marosimlarda ham yakka va jamoa bo‘lib so‘z aytish, qiroat qilish kabi jarayonlarni kuzatishimiz mumkin (Anvar Axmad, 2018, s. 40-48).

Barcha dinlarda yakka va jamoa bo'lib suralar o'qish, jamoa bo'lib qiroat qilish, diniy qo'shiqlarni jamoa bo'lib aytish mavjuddir. Ushbu holatlar qiro'at deya atalsada, qo'shiqchilikdagi barcha unsurlar bunda mavjuddir. Bulardan tashqari, diniy qo'shiq (Tasavvuf shoirlar qalamiga mansub) va rivoyatomuz ashulalardan qalandarlar ijrosida "Jaxr", "Zikr" nomli aytilmalar ham mavjudki, ushbu aytilmalarda sarbon qalandar yoki eshon xofiz ikki-uch jumlani xassasida usul (ritmik temp) berib aytadi va qolgan qalandarlar uning ketidan ergashib qaytaradilar. Zikr - o'zida she'r, so'z, musiqa, usul va raqsnı birlashtiradi. Yassaviya, Kubraviya va ayniqsa, Chashtiya tariqatlarida zikr marosimini qo'shiq va harakat bilan ijro etish nisbatan keng tarqalgan. Maxdumi A'zamning Zikr borasidagi fikriga ko'ra, xojalar zikrda azimat bo'lidan borgan bo'lsalar ham, ulardan ba'ziları zamon taqozosiga qarab va qavmlarning iste'dodini nazarda tutib jaxr qilganlar. Uning yozishicha: "**Xech aybi nest, bag'oyat ho'bast, tariyqi anbiyoi motaqaddam nez hamin budast**" (Buning hech aybi yo'q, bag'oyat yaxshidir, o'tgan anbiyolarning yo'li ham shunday bo'lgan). Podshohliklar davrlarida ham saroyning qo'shiqchilar jamoasi, saroy sozandalar jamoasi bo'lgan. Dushmanni sarosimaga solish maqsadida jang oldidan dovul, karnay chaldirilganligi tarixiy solnomalarda yozib qoldirilgan. Urushlarda dushmanni sarosimaga solish maqsadida "Ur ho ur", "Olg'a" kabi so'zlar qo'llanilgan-ki, ular nafaqat dushmanni sarosimaga solgan, balki jangchi ko'ngliga tasalli bergan, kuchiga kuch qo'shgan, ruhlantirgan, g'alabaga undagan. Qadim zamonlarda podshoh, xon farmonlarini og'zaki holda xalqqa yetkazish maqsadida baland va chiroyli ovozi, nutqi ravon kishilarni tayyorlashgan va saroyga ishga taklif qilishgan. Chunki, podshoh yohud xon farmonini hamma eshitishi va so'zlarini to'liq anglashi kerak edi. Xalq orasida jamoa bo'lib folklor - etnogafik qo'shiqlar aytish rivojlangan. Bu qo'shiqlar marosim qo'shiqlari, mavsumiy qo'shiqlar va boshqa shunga o'xshash qo'shiqlar tarzida shakllangan. Tarixga nazar solsak, bunday holatni barcha xalqlarda kuzatishimiz mumkin. Qolaversa, har bir mamlakatning ob-havosi, joylashgan joyi, turmush tarzi, tabiati, so'z boyligi, ma'naviyati, madaniyatini rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan. So'z va soz orqali insonlarni yaxshilikka chorlashgan, birdamlik, ahllik, do'stlik kabi tushunchalar tarannum etilgan. Inson hayotida ovunchoq va madadkor, betimsol ruhiy quvvat bo'luvchi san'atlardan biri aynan so'z va soz san'atidir (Matyakubov, 2018, b. 13-15).

Tibbiyot ilmining sultoni, alloma Abu Ali Ibn Sino o'zining tibbiyotga oid kitoblarida so'z va soz ilmida ham tadqiqotlar olib borgan. Qolaversa Ibn Sinoning o'zi ham musiqa sozlarida chalishni bilgan. Musiqadagi tonlar, nag'malar va hatto usullarning ham inson organizmiga ta'siri, uni davolash va aks ta'sir ko'rsatishi mumkinligini o'z risolalarida yozib qoldirgan.

*Beshik insonni jismoniy kamolotga yetkazsa, Ona allasi uni ma'naviy kamolotga yetkazadi **Abu Ali Ibn Sino**.* Sharq mutafakkirlari va Yevropa olimlarining musiqaga oid risolalari, ilmiy tadqiqodlari va izlanishlari bizning davrimizgacha yetib kelgan (Matyakubov, 2018, b. 12-14).

Buyuk bobokalonimiz Abu Ali ibn Sino allaning xususiyati borasida bir necha asrlar avval shunday yozgan edilar: "... bolaning (mijozini) qiziqishini kuchaytirmoq uchun unga ikki narsani qo'llamoq kerak. Biri — bolani sekin-asta tebratish, ikkinchisi uni uxlatish uchun odat bo'lib qolgan ohang (musiq) yordamida go'zal va ilohiy so'zlar ila allalashdir. Shu ikkisini qabul qilishiga qarab, bolada badantarbiya, so'z va sozga bo'lgan iste'dod hosil qilinadi" (shifo.uz/article/alla-haqida).

Qadimdan so'z va soz uyg'unligi ijrosi har jabhada o'ziga xos shaklda rivojlanib bordi. Insonlarning bir-biri bilan aloqa qilishida, maishiy hayotida, turli tadbir va marosimlarni o'tkazishda va eng asosiysi odamzot sifatida boshqa jonzotlardan ajralib turish uchun ham so'z va soz uyg'unligining ijrosidan doimiy foydalanib kelmoqda. Shu o'rinda o'zbek baxshilarining piri hisoblanmish Mulla G'oyibning ushbu misralariga e'tiborimizni qaratamiz:

*Soz bilan suhbatni yolg'on demanglar,
Odam ato paydo bo'lg'anda bordur.
Hobil, Qobil onasining qorninda,
Alar ham dunyog'a galganda bordur.*

*Mullalar jam bo'lib topmadi dalil,
Man sanga sig'indim ya Rabbim Jalil.
Ismoyil payg'ambar, Ibrohim Xalil,
Makka Madinani qurg'anda bordur.*

*Bu dunyog'a kimki galdi sarishta,
Odam og'li har qaysisi har ishda.
Xorud, Morud odli ikki farishta,
Bobilning chohina tushganda bordur*

*Igna uchun Iso osmonda qoldi,
Iskandar Zulqarnayn dunyoni oldi.*

*Musoning hassasi ajdaho bo'ldi,
Nasimiyning po'stin so'yg'anda bordur.*

*Dog'larning boshinnan getmas dumoni,
Bir gun bo'lar yaratganning farmoni.
Ma'diy kelib olur yoxti jahonni,
Ali yoqasinnan tutganda bordur.*

*Shaytonni quvdilar jannat uyinnan,
Har kim topar o'z fe'linnan, ho'yinnan.
Xudo o'zing saqla xazon suvinnan,
Nuhni gamasina dushanda bordur.*

*Mullalar jam bo'lib ketdilar hama,
Xazonon demakni ma'nosi nima?
Podshoh bo'lib o'tdi shohi Jam-jama,
Dunyoning lazzatin totganda bordur.*

*Muhammad payg'ambar din yo'lin ochdi,
Bilol azon aytdi kofirlar qochdi.
Abu Bakr, Umar, Usman yetishdi,
Ali zulfiqorin cholg'onda bordur.*

*Hazrati Dovudning qirq o'g'li bo'ldi,
Manmanlik ayladi, barchasi o'ldi.
Qirq o'g'il o'rniga bir o'g'il ko'rdi,
Dovudning qirq o'g'li o'lganda bordur.*

*Mullo G'oyib aytar, Xizirdur pirim,
Pirim Shoyimardon Ali dastgirim.
Sulton Suyun podshoh Mir Alisherim,
Dunyoning to'zini tutganda bordur (Matyoqubov, 2024, b. 65).*

Ushbu she'rdan shuni anglash mumkinki, soz va so'z uyg'unligi ijrosining qadimiyligi, uning kuchi, uning qudrati har bir davr va har bir zamonda o'z ahamiyatiga ega bo'lgan, bo'lmoqda va bundan keyin ham o'z ta'sir kuchini yo'qotmaydi.

Folklor va So'z - Sozning Uyg'unligi

Har bir xalqning o'zining madaniyati, milliy san'ati va boy badiiy an'analari ajdodlardan meros qolgan moddiy va ma'naviy boyliklar bilan belgilanadi. Shunday qadriyatlardan biri so'z va soz san'atidir. So'z san'ati - bu tovushlarning uyg'unligi bilan, soz san'ati esa musiqa - ovoz bilan paydo bo'lgan. Asrlar, ming yillar davomida so'z san'ati rivojlangan bo'lsa, hali cholg'u asboblari yaratilmagan davrlardayoq ovoz san'ati mavjud bo'lgan. Ana undan keyin inson ovoziga, zamonaviy til bilan aytganda inson tembriga yaqinlashtirilgan cholg'u asboblari ixtiro qilina boshlangan ("Musiqa cholg'u asboblari", 2019).

So'z va soz bilan insonni har qanday holatdan yaxshilik, yorug'lik, musaffolik, ko'ngilchanlik va boshqa ruhiy holatlarga keltirish mumkin. Hatto ruhiy kasalliklarni so'z va soz san'ati bilan davolash mumkinligini qadimgi olimlar ta'kidlab o'tishgan. *Aql ketar bo'lsa har tandan yiroq, Jinnilik asari yuz bergay shu choq. Go'zallar yuziga tiksiz ko'zini, Nay-u ud, changga ham tutsin u quloq. Yusuf At Tabib Al Haraviy* (Matyoqubov, 2009, b. 7).

Arab tili bilan turk tilining uzviy aloqadorligiga doir yana bir misol: Islom dinida chaqaloq tug'ilganda uning qulog'iga azon aytilib, "Allohu Akbar, Muhammadur Rasululloh" deyiladi. Turkiy va bir qator boshqa xalqlardagi onaning o'z chaqalog'iga alla (e'tibor bering, "Alloh" so'ziga ohangdosh) aytishi uning o'z bolasiga o'ziga xos ta'limi va tarbiyasi, Allohni tanitishi, deyish mumkin. "Alla" so'zi ingliz tilida "lullaby [la'libay]" deyiladi. Ahamiyat bering: inglizchada "goodbye [gud'bay] xayr, yaxshi qoling, Xudo yor bo'lsin" so'zi asli "Good by (you) [Good bay yu] Xudo siz bilan" degan iboradan kelib chiqqan. Ya'ni, "lullaby" so'zi ham "Allah by you - Alloh sen bilan" iborasidan olingan (Atayev, 2024).

Ona allasi inson tug'iliboq birinchi eshitishi mumkin bo'lgan qo'shiqlardan biridir. Asrlar davomida sayqallanib kelayotgan alla qo'shig'i oddiygina ikki pardani bir-biriga bog'lab kuylangan bo'lsada, uning ona yuragidagi dard, nola, shodlik, niyat, orzularini so'z ifodasi orqali o'z ichiga olgan. Oddiy ikki parda beshik, belanchagining borib kelishi ritmik holatidan olingan bo'lsa undagi she'riy misralar har bir onaning orzu-havasi, niyati, qalb tubidagi so'zlaridir. Asrlar davomida allaga yaxshi niyatlar, orzu-havas, quvonch, shodlik, tilak so'zlari qo'shib kuylangan. Alla so'zidagi har bir yaxshi tilak, orzu-havas go'dak ulg'aygach o'z natijasini beradi degan ishonch bilan qiz yoki o'gil farzand bo'lishidan qa'tiy nazar, alla orqali sadoqat, mardlik va jasurlik, go'zallik kabi nafis, olijanob tuyg'ularni singdirishga harakat qilishgan. Alla so'zining ma'nosi Alloh demakdir, ayollar o'z kuylari orqali bolaga Buyuk Allohning nomini singdirib, ruhiy tarbiyalaydilar. Ya'ni, allaning asl shakli "Alloh" zikridir, buni har safar uyqudan oldin eshitgan go'dak o'z Robbini taniydi (Karimova, 2021, b. 91-98).

Shu o'rinda alla qo'shig'ining so'zlaridan birini misol keltiramiz:

Jonim bolam, baxtim bolam alla-yo, alla

Ko'ngildagi taxtim bolam alla-yo, alla

Hayotim ham borim o'zing alla-yo, alla

Nomusim ham orim o'zing alla-yo, alla

Bo'ynimdagi tumorim alla-yo, alla

Dilimdagi xumorim alla-yo, alla

Tangrim bergan osmonim alla-yo, alla

Vatanimga posbonim alla-yo, alla.

Bunday misollarni juda ko'p keltirish va uzoq davom ettirish mumkin. Shubhasiz, ushbu "Alla"ning so'zlarini eshitib ulg'aygan farzandning to'g'ri shakllanishi, uning oilasiga, Vataniga mehri ortishi turgan gap.

Aytishlaricha, buyuk fransuz sarkardasi Napoleon Banopartning onasi sarkardani uyqudan uyg'otish uchun shunday so'zlar bilan murojaat qilgan ekan: "O'g'lim turing, sizni buyuk-buyuk ishlar kutmoqda" (sof.uz elektron gazetasi).

Yoki bo'lmasa, yaxudiy millatini olaylik, bu millat vakillari farzandlari nima ish qilsalar ham ularni koyimasdan "Sizdan buyuk inson chiqadi", deya ruhlantirishar ekanlar. Yaponlarning farzand tarbiyasida ta'lim maskanini juda muqaddas bilishadi va har kun ertalabdan o'quv dargohi oldida tiz cho'kib yaxshi o'qib olim bo'lishligi uchun duo qilishar ekan. Yana bir ahamiyatli jihati, Yaponiya Davlat ta'lim tizimidagi fanlar ichida ona tili va musiqa fanlari birinchi o'rinda turadi. Balki shuning uchun Yaponiya eng rivojlangan davlat sifatida tan olingan va aynan o'z ona tili va musiqa bilan ulg'aygan yosh avlod Yaponiyadek davlatni rivojlangan mamlakatlarning sarboni sifatida ko'rsatishiga olib kelgandir (Madraximov, 2000).

Farzand tarbiyasiga, uning to'g'ri shakllanishiga, kelajakda uni to'g'ri yo'l tanlay olishi nihoyatda muhim. Ularga muntazam ravishda vatanparvarlik, rostgo'ylik, haqiqatparvarlik, mehribonlik, oilaparvarlik kabi hislatlarini singdirib borish kerak. Ushbu holat so'z va soz san'ati bilan sug'oriladigan bo'lsa nur ustiga a'lo nur bo'ladi. Chunki, inson so'z va soz san'atini qo'llaganda ovozdagi mung yordamida eshituvchining yuragini zabt etish mumkin.

So'z ojizlik qilgan vaqtda, musiqa yordamga keladi. G.X.Andersen (snorovka.com web sayti).

Ushbu jumlar, so'z va soz uyg'unligi ijrosi bo'lmish qo'shiq, ashula, maqom asarlarining ilohiy kuch ekanligini yana bir ta'kidlaydi. Qo'shiq so'zining ma'nosi qo'shilmoq demakdir ("Qo'shiq", 2021).

Bunda so'z va ohang qo'shilishi, uyg'unlashishidan tashqari shoir, musiqachi va eshituvchini bir-biriga qo'shmoq, ya'ni qo'shiqchi tomonidan shu uchlikni bunday ne'matdan bahramand qilmoqdan iborat. Qolaversa, qo'shiqchining o'zi ham bu ne'matdan bahramand bo'lmog'i aytiladi. Qo'shiqchi - shoirning yurak dardlarini musiqa yordamida eshituvchining ko'ngliga joylay olishi lozim. Qo'shiqchining mohirligi, professionaligi eshituvchi uchun juda zarurdir. Har bir tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan so'zni inson qalbiga yanada chuqurroq kirib borishida, so'zning ta'sirchanligini yanada oshirishda qo'shiq muhim rol o'ynaydi. Qo'shiqdagi turli bo'rttirmalar, urg'ular, har-xil kayfiyat, talaffuzlar, cho'zimlar, dinamikalar, pardalarning baland yoki past kuylanishi yordamida eshituvchiga so'zlarni shunday yetkazish mumkinki, yurakning tub-tubidagi dardlarni jumbushga keltira oladi. Qo'shiq atamasi ikki xil fe'l ma'nosida qo'llaniladi: keng ma'noda aytim (vokal) asar: tor ma'noda - qo'shiq janri. Janrga xos tasnifiy belgilari - barmoq vaznidagi to'rtliklarda kuylash, mazmunan turlicha: hajviy, hazilomuz va hokazo. Dastlab qo'shiqlar kvinta - seksta, oktava oralig'i bilan cheklangan. Ohanglarida so'zdosh va kuychan xususiyatlarining payvastaligi namoyon bo'ladi. Bularga: terma, yalla, lapar, qarsak va hokazolar kiradi. Lirik qo'shiq bu janrning muhim

turidir. Unda asosan ishq, (yorga, elga, Vatanga va hokazo) muxabbat mavzulari tarannum etiladi. Ashula qo'shiqning rivojlangan aytim turi bo'lib, ovoz ko'lamining nisbatan kengligi, kuylarning ohangdorligi, ritmlarning serqirra va murakkabligiga ega. Ashulada ham barmoq, ham aruz vaznli she'rlar, g'azallar qo'llaniladi. Aksar hollarda ishqiy-lirik kayfiyat yetakchilik qiladi, falsafiy va didaktik mavzular bayon etiladi. Ashula janri musiqa ijodi va ustozona musiqa qatlamlari orasida o'ziga xos bog'lovchi "ko'prik"dir. Rivojlangan ashula, Katta ashula — ustozona musiqa namunasidir (Ibragimov, 2006, b. 96).

Ashula va qo'shiq o'rtasidagi farqlarning yana biri, shartli ravishda tuzilgan olti bo'lakdan tashkil topadi. Bularga daromad, miyonxat, dunasra, o'rta avj, katta avj, furovard kiradi. Qo'shiqda esa kuplet, naqorat va avj kuzatiladi. Bularning hammasini yakkaxon shaklda ham, jamoa shaklida ham ijro etish mumkin.

Folklor janrining qadimiy yo'nalishlaridan biri bu dostonchilikdir. Dostonchilik qadim-qadimdan rivojlanib kelayotgan, og'izdan-og'izga, otadan-bolaga, ustozdan - shogirdga o'tib kelayotgan qadriyatdir. Dostonchi - ham qo'shiqchi, ham shoir, ham so'z ustasi, ham soz ustasi, ham aktyor, ham psixolog, ham yaxshi improvizator, ham yaxshi arator bo'lishi talab qilinadi. Bu janrni ilmiy o'rganib, tadqiqodlar olib borgan olimlarimiz, dostonchilik dastlab bir voqeani so'zlash keyinchalik kuylab berish bilan boshlanganligini ta'kidlashadi. *Maqom - soz etmak, suvora - so'z etmak, doston - voqelik*. Bola baxshi Qurbonnazar Abdullayevning ushbu fikrlarini so'zimiz isboti sifatida keltirib o'tamiz (Matyoqubov, 2009, b. 6).

Ustoz Otaxon baxshi ta'kidlasharicha, Xorazm baxshichilik san'atini xonandalik sohasidan ayro ko'rsatish mumkin emas, chunki bu ikki san'atning ildizi bir. Demak, yakka xonandalik san'atini vujudga kelishiga sababchi dostonchilik. Baxshi ya'ni ma'rifatparvar, ustoz xalqni ma'naviyatini o'stiradi, o'zining hikoyalari orqali o'z eshituvchilarini tarbiyalaydi. Keyinchalik she'riy janrlarning qonuniyati o'sib borishi bilan xonandalik san'ati rivojlangan.

Xorazm dostonchiligi va xonandalik san'ati bizgacha to'la yetib kelishiga sababchi inson Qurbonnazar Abdullaev haqida ustozdan so'raganimizda shunday javob berdi: "Bola baxshi men shogird bo'lib tushishimdan oldin bir marta ham dars berib ko'rmagan edi. Uyida xizmatlarini qilib biroz vaqt o'tgach, darsni nimadan boshlashni bilmay, ovozimni sozlab, ashula o'rgata boshladi, dostonlarning nasriy qismiga kelganida so'zlarning har birini tushunarli aytish, ayniqsa harflarni to'g'ri jaranglatishni o'rgatar edi. Ustozning uyiga ramazon oyida (to'y yo'q paytlari) Xivalik xonandalar yig'ilib, har birining so'zda, sozda, tartib-intizomdagi kamchiliklarini aytib, bu xatolarni qaytarilmasligini nazorat qilishar edi. El orasida yurgan san'atkorlar tanqidni to'g'ri qabul qilib, o'zlari ustida ishlar edilar va Xiva san'atkorlari orasida o'sish kuzatilar edi" (Matyakubov, 2009, b. 28-29).

Ustoz-shogird an'anasi haqida ko'p gapiramiz va shogird noboproq chiqsa ustozni aybdor qilamiz! Ustoz o'zining xulq-atvori, san'ati, muomalasi bilan shogirdlarga namuna bo'lishi kerak! San'atkorning korini o'rgatuvchi dastlab ustoz bo'lsa, korining sifatini oshiruvchilar uning yon atrofidagi sozandalari, san'atkor do'stlari, qarindoshlari va asosan eshituvchilari hamda muxlislaridir. Ustoz ming gapirgani bilan shogirdning boshi devorga urilmasa foydasi yo'q!

Xorazm eroniy maktabining yirik vakili Axmad baxshi Matnazar o'g'lining 1934 - yili qishloq klubida doston ijro qilganligini folklorshunoslar shunday ta'riflashadi: "Klub zaliga uch yuzdan ko'proq kishi joylashdi. Baxshi "Go'ro'g'li" dostonini boshladi u juda berilib tomoshabinni o'ziga jalb qildi-ki, shinavandalar har bir doston qahramoni obrazini qalbdan his qilib, doston ichiga sho'ng'ib uning mazmuni bilan nafas ola boshladi. Doston kulminatsiyasiga yetib unda Go'ro'g'li qirq yigiti va xalqiga qarab "Safarim bor Gurjiston maning bilan ketgan yursin" deb baxshi dutorini chalib zaldan tashqariga chiqishi bilan doston jarayonidagi tomoshabinlarning barchasi go'yoki Go'r o'g'lining o'g'li Avaxxonni qutqarish uchun janga otlanayotgan askarlar kabi u bilan tashqariga otilib chiqadi". Dostonlarning dramaturgiyasi, voqealar rivoji qanday ruhiyatda bo'lsa nomalari, ya'ni musiqalarining xarakteri ham shunga moslashadi. Qayg'uli-g'amgin bo'laklarda baxshilar ko'proq zorinji, nolish kabi nomalardan foydalanishadi. Jangu-jadal, qahramonlik, bahodirlik aks etgan bo'laklarida ilg'or, eshvoy kabi nomalarni ishlatishadi. Baxshilarning mohirligi va xalqni o'z ortidan ergashtirish to'g'risidagi bunday misollarni juda ko'plab keltirish mumkin. Hatto xonlarning ham o'z shaxsiy baxshilari bo'lgan ekan. Misol uchun Muhammad Rahimxon Feruz soniyning Suyav ismli baxshisi bo'lgan. Ustoz Otaxon akaning ta'kidlashicha: "Har yili mart oyida Xiva shahrining Nurillaboyning bog'ida baxshi-xonandalarning ko'riktanlovi bo'lib, unda xalq xizmatida yurgan va ustoz fotihasidan so'ng el xizmatiga kamarbasta bo'lib turgan yosh xonandalar qatnashib o'z mahoratini namoyish etar ekan. Xonandalarni birma-bir eshitib xon o'z fikrini Suyav baxshiga aytar ekan, baxshi rozilik bildirsa xonandaga el-yurt xizmatida bo'lishga ruhsat berilar va aks holda bu xonanda yana o'z ustida ishlashi kerakligini aytib, xizmat qilishga izn berilmas ekan" (Matyakubov, 2009, b. 30-31).

Bunday ko'riklar xalq qulog'i yengil-yelpi, begon Roportaja ohanglarni eshitmasin, aksincha, yuksak salohiyatli, millatiga xos ohanglardan shinavandalar bahra olsin degan maqsad yotar edi. Mazkur odatni hozirgi kundagi litsenziya beruvchi tashkilotlarga o'xshatish mumkin. Hozir O'zbekistonda turli dostonchilik maktablari mavjud bo'lib, bular Qoraqalpoq, Xorazm, Qashqadaryo - Surxandaryo va Nurota

dostonchilik maktablaridan tashkil topgan. Qoraqalpoq, Qashqadaryo - Surxandaryo, Nurota dostonchilik maktablari doston kuylash jarayonida tomog'i qirilgan holda o'ziga xos ovoz chiqarish uslublari mavjud. Ushbu tovush chiqarish uslubini otashparastlik, buddizm, shamanlarning diniy tadbirlarida ham kuzatishimiz mumkin. Bu dostonchilik maktabi baxshilari faqat do'mbira yoki qo'biz jo'rligida nomalar kuylab, so'z aytish vaqtida do'mbiralari cholib bezak berilgan. Majoziy ma'noda aytadigan bo'lsak ham o'zlarini ham tinglovchini bir sozga sozlab turgan.

Xorazm dostonchilik maktabi baxshilari ulardan farqli o'laroq baxshining yonida jo'r bo'lish uchun unga sozandalar hamrohlik qilishadi. Nomalar aytilganda baxshining o'zi tor cholib kuylasa yordamchi sifatida doirachi unga hamroh bo'lgan holda birgalikda kuylaydi. Ayrim hollarda bulamon va gijjak sozlari hamrohlik qilishi mumkin. Misol tariqasida Bola baxshi Abdullayev doston kuylagan vaqtida unga shogirdlari yoki o'g'illari jo'r bo'lib turgan va sekin-asta dostonchilik sirlarini yonlarida birga yurib o'rganishgan. Xorazm dostonchilik maktabining yana bir o'zgacha tomoni, aytishuvlar vaqtida ayol xonandalar ham qo'shilib kuylashgan. Buning sababi badiiy obrazni yanada reallikka yetaklashdir. Misol tariqasida O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan baxshi Otaxon Matyakubov "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostonidagi erkak obrazlarini o'zlari va doirachilari Rajabboy aka Masharipov bilan birga kuylar edilar. Ayol obrazlarini esa Mahbuba Turayeva ismli ayol shogirdi kuylar edi. Ushbu holat eshituvchining ta'surotini yanada oshiradi, tasavvur qilish imkoniyatini yanada kengaytiradi.

Qadimdan bizgacha yetib kelayotgan va boy merosimizga aylangan, o'ta nozik did ila monumental ko'rinishga ega bo'lgan, hozirgi davr tilida aytganda professional bir janr bor-ki, bu "Maqom"dir. Maqom — bu joy, makon, zamon va hokazo ma'nolarni anglatadi. Maqom asarlari saroy mulki hisoblangan va faqatgina saroylarda ijro etilgan. Maqom asarlari ijrochilari va xonandalari saroyda yashab ijod etganlar. Oddiy xalq esa yuqorida ko'rsatib o'tilgan folklor qo'shiq va ashulalardan bahramand bo'lishgan. O'zbekistonda maqomlar uch vohaga bo'lingan: Xorazm maqomlari, Buxoro Shashmaqomi va Toshkent-Farg'ona maqom yo'llaridir. Bu maqomlar tuzilish jihatidan bir-biriga o'xshab ketsada, asarlarning ohanglari, ladlari, maqom aytim yo'llaridagi g'azallari bilan farqlanadi. Maqom asarlarining aytim yo'llarida aksariyat g'azallar aruz vaznida yozilgan (Yunusov, 1992, b. 15-16).

Aruz nima? Arab she'riyati dastavval ko'chmanchi, tuya boqish bilan shug'ullanuvchi arab qabilalari — badaviylardan vujudga kelgan. Arab tuyachilari tuyani tezlatish uchun maxsus qo'shiqlar kuylaganlar va bu qo'shiqlar arab xalqlari orasida keng tarqalgan. VIII asrga kelib arab olimlari orasida she'riyat va xalq og'zaki ijodi orasidagi munosabatni o'rganish, ularning muayyan qonuniyatlarini ishlab chiqishga ehtiyoj tug'ildi. Bu vazifa haqli ravishda "arab filologiyasining otasi" deb e'tirof etiluvchi olim Xalil ibn Ahmad (715/719 – 786/791) tomonidan amalga oshirildi. U aruz ilmini bir butun tizim holiga keltirdi va uning nazariy asoslarini ishlab chiqdi. "Aruz" so'zining ko'plab lug'aviy ma'nolari bor. Adabiy istiloh sifatida ularning qay biri asos qilib olingani aniq emas. Bu borada olim va ijodkorlar tomonidan bir-biridan tubdan farq qiluvchi bir qancha fikrlar bildirilgan. Ulardan bir nechtasini keltirib o'tamiz: 1. Vodiy nomi. 2. Makka shahrining nomlaridan biri. 3. Taraf, jihat, mintaqa, yon. 4. Bulut. 5. Sarkash tuya. 6. Chodirning o'rta ustuni. 7. O'lchov. Endi ushbu fikrlarning izohi bilan tanishsak. Alisher Navoiy o'zining "Mezon ul-avzon" (Vaznlr o'lchovi) asarida aruz ilmining asoschisi Xalil ibn Ahmad yashagan hudud yaqinida Aruz degan vodiy borligi haqida ma'lumot beradi. Bu vodiyda arablar chodirdan uylar tikib, ularni bezatib sotar ekanlar. Uyni "bayt" deb atasharkan. Baytning mavzun - nomavzun (vaznli - vaznsiz) ekanligini aruz fanining o'lchoviga solib ko'rishganidek, bezatilgan uylar ham bahoga solib o'lchab ko'rilar ekan. Shu tariqa mazkur ilm ushbu vodiy nomi bilan "aruz" deb atala boshlangan. Manbalarda, xususan, Sayfiy Buxoriyning "Aruzi Sayfiy" asarida aytilishicha, Xalil ibn Ahmad Makkada o'ziga yangi ilhom ato etilishini tilab duo qiladi. Duosi ijobat bo'lib, aruz ilmiga asos soladi va uni Makkaning nomlaridan biri bo'lgan so'z, ya'ni Aruz nomi bilan ataydi. Aruz she'rshunoslik ilmining bir qismidir. Uning "taraf, yon" degan ma'no anglatishi she'r ilmining bir tarafi degan mazmun bilan bog'liq. Ba'zi rivoyatlarga ko'ra, aruz muammolarning yengil hal etilishiga olib borgan yo'l ramzi bo'lmish bulutga o'xshaydi. She'r vaznining to'g'ri yoki yanglish ekanligi shu ilm orqali aniqlangani uchun ham "aruz" so'zi bulut degan ma'noga ham nisbat berilgan. Aruz vazni tuya yurishining ritmidan olingan degan rivoyatlar ham mavjud. Badaviylar tuya sahroda yurishni xohlamay, sarkashlik qilgan paytda uni tezlatish uchun maxsus qo'shiqlar kuylaganlar va bu qo'shiqlar ohangi aruz vaznining vujudga kelishi uchun asos bo'lgan degan qarashlar bor. Aruz tizimiga xos bo'lgan ko'plab istilohlar ham tuya hayoti bilan bog'liq so'zlar asosida vujudga kelgan deyish mumkin. Aruz she'riy tizimi arablardan forsiy va turkiy adabiyotga keng yoyildi. Hijratning ilk asrlarida Arab xalifaligi butun Eronni fath etdi. Qadimiy Sosoniylar davlati madaniyati tomir otgan bu hududlarga islomiyat va arablar bilan Qur'oni Karim va u ifodalangan til — arab tili kirib keldi. Natijada, she'riyatda ham asta-asta arablarga xos yangilanishlar bo'y ko'rsata boshladi. Turkiy adabiyotda islomdan avval o'ziga xos maxsus she'r tuzilishi bo'lgan va bu tizim bo'g'inlar soniga asoslangan. Ushbu tizimda yozilgan she'rlarning aksariyat qismi to'rtliklardan iborat bo'lishi bilan ahamiyatli edi. Kuzatuvlarga ko'ra, turkiy xalqlar ilk bor aruz tizimida qalam tebrata boshlaganlarida barmoq vazn tizimiga yaqin turuvchi vaznlardan foydalanganlar. Aruz muomalaga kirgan ilk davrlarda yozilgan Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari "Shohnoma" vaznida, ya'ni mutaqorib bahrida yozilgan. Yusuf Xos Hojibning aynan shu o'lchovni tanlashiga sabablardan biri sifatida mutaqorib bahrining turkiy xalqlar

she'riy tizimi – barmoqning eng faol shakllaridan bo'lgan o'n bir bo'g'inli vazniga juda uyg'un ekanligini keltirish mumkin. Adib Ahmadning "Hibat ul-haqoyiq" asarida ham ushbu o'lchov to'rtliklar shaklida ifoda etilgan. Turkiy aruzning nazariy va amaliy jihatdan shakllanishida buyuk mutafakkir shoir hazrat Alisher Navoiy ijodining o'rni beqiyos. Navoiy o'zining aruz qonun-qoidalariga bag'ishlangan "Mezon ul-avzon" asarida 19 bahr, 160 vazn haqida ma'lumot beradi, har bir vaznga turkiy tilda misollar keltiradi. Shoir she'riyatining gultoji hisoblanmish "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotining o'zida 13 bahr, 90 ga yaqin vazn istifoda etilgan. Agar bunga buyuk mutafakkirning epik she'riyati, forsiy tildagi she'rlarida qo'llanilgan vaznlarni ham qo'shib hisoblaydigan bo'lsak, mazkur ko'rsatkich 100 dan ortadi. Ularning barchasi aruz tizimi turkiy she'riyatning ajralmas qismiga aylanganligini bildirish barobarida bu she'riy tizimning turkiy til qonuniyatlariga naqadar mos kelishini ham isbotlab beradi (Yusupova, 2022, b. 7-9).

Xulaso

Maqolamizning hulosasi sifatida shuni aytishimiz mumkinki, turli dinlar vakillari ham, oddiy omma ham so'z va soz san'atining bemisil qudratini anglab yetgan, uning inson yuragining tub-tubiga yetib borishidan unumli foydalangan va aynan so'z va soz san'atining qudratini oshirishda esa turli ohanglardan foydalanilgan va foydalanib kelinmoqda. So'z va soz ijro san'ati nafaqat insonni balki borliqdagi barcha jonli narsalarga ham ta'sir o'tkazishi mumkin. Jonli mavjudot borki, uning organizmida suyuqlik mavjud. Inson organizmining 70 foizi suyuqlikdan tashkil topgan. Yaponiyalik olimlarning tadqiqodlaridan birida ikki idishga suv solinib ularning biriga klassik qo'shiq va shirin so'z gapirib eshittirilgan va muzlatilgan. Ikkinchi idishdagi suvga rok yo'nalishidagi qo'shiq va baqir-chaqir, yomon so'zlar eshittirilgan va u ham muzlatilgan. Muzlatilgan idishlarning birinchisi, ya'ni klassik qo'shiq va shirin so'z eshittirilgan idishda muzlatilgan suvda hosil bo'lgan kristall shakllari bejirim, chiroyli gullar, naqshlar chizilgandek ajoyib shakllar hosil bo'lgan. Ikkinchi, ya'ni rok qo'shig'i va yomon so'zlar eshittirilgan idishda muzlatilgan suvda qilichsimon, tikanaksimon kristallar hosil bo'lgan. Shunga o'xshash tadqiqodlardan birini Gollandiyalik olimlar ham o'tkazishgan. Ularning tadqiqodlari gul ustida bo'lgan, ya'ni uchta bir xil gul ekilgan. Ularning birinchisiga shirin so'z va klassik qo'shiq, ikkinchisiga she'rlar, hikoyalar va folklor qo'shiq, uchinchisiga yomon so'zlar va rok qo'shiq eshittirib borilgan. Birinchi va ikkinchi gullar o'sib gullab xushbo'y hid tarata boshlagan. Rok qo'shig'i va yomon so'zlarni eshittirilgan gul qurib, to'kilib qolgan. Buyuk Britaniyalik doktorlar ham shunga o'xshash tadqiqod o'tkazishdi. Tadqiqot ona qornidagi bolaga ham ikki xil xarakterdagi so'z va ikki yo'nalishdagi musiqa eshittiriladi. Natija xuddi yuqoridagidek. Klassik musiqa va shirin so'zlar eshitgan vaqtida homila o'zini juda yaxshi his qilgan, yomon so'zlar va rok musiqalar eshitgan homilada salbiy holatlar kuzatilgan. Chunki, ona qornidagi bolaning yurak urishi normal holati daqiqasiga 128-marta. Aynan klassik musiqa va shirin so'z eshitgan ona qornidagi bolaning yuragi daqiqasiga 128-marta urgan. Rok musiqasini va yomon so'zlarni eshitganida esa daqiqasiga 158 va undanda yuqori marotaba yurak urgani kuzatilgan. Ona qornidagi bolaning eshitish organlari 20 haftaligida to'liq rivojlanishi fanga ma'lum. Shuningdek, tug'ilishi bilan nafas olish uchun yig'lashi uning birinchi ovoz chiqarishi hisoblanar ekan. Bundan anglash mumkinki, so'z va sozning nafaqat suvga qolaversa, butun olamga ta'siri bor ekan. XIX asrning o'rtalarida rus olimlari agressiv xarakterdagi so'zlar va musiqalar inson ongini pasayishiga olib kelishini, unda qo'rquv, boqibeg'amlik, g'arazguylik kabi yomon illatlar kuchayishini tadqiq qilganlar. Bundan XII asr ilgari Sharq mutafakkirlari "Bolaga past ovozda, yoqimli so'zlar bilan gapiring va musiqa bilan ko'ngliga yo'l toping. Voyaga yetgach u boshqa bolalardan yetukligi, ongliligi, aqilliligi, farosatligi bilan ajralib turadi" deb ta'kidlaganlar. Shu o'rinda bir misol. Nemis bosqinchilari yetakchisi Gitler omma oldida nutq so'zlashidan oldin agressiv xarakterdagi musiqa qo'yilar va undan keyingina Gitler o'z nutqini agressiv xarakterda boshlar ekan. Gitlarning bunday xatti-harakatidan keyin uni tinglagan odamlar huddi zombiga aylanib buyurilgan barcha salbiy yumushni bajarishga shay bo'lib qolar ekan. Tarixiy dalillar bunga yorqin misol bo'la oladi (Madraximov, 2019). Shunda ko'rinib turibdiki so'z va soz ijro uyg'unligi hamda ularning kuchi bemisil bahaybat va kengdir. Uni to'g'ri qo'llash, joyida ishlata bilish, me'yorida qo'llash ham bir san'atdir. So'z va soz san'atini qay tarzda ishlatsa shu tarzda o'z mevasini shu zahoti beradi. Yomonlikka ishlatsa yomon, yaxshilikka ishlatsa yaxshilik mevasini qisqa sur'atlarda bera boshlaydi.

Hakem Değerlendirmesi: Dış bağımsız.

Çıkar Çatışması: Yazar, çıkar çatışması olmadığını beyan etmiştir.

Finansal Destek: Yazar, bu çalışma için finansal destek almadığını beyan etmiştir.

Peer-review: Externally peer-reviewed.

Conflict of Interest: The author have no conflicts of interest to declare.

Financial Disclosure: The author declared that this study has received no financial support.

Adabiyotlar/Kaynaklar/ References

- Anvar Axmad (2018). *Siz namoz o'qishni bilasizmi?*. G'afur G'ulom Nomidagi Nashriyot-Matbaa Ijodiy Uyi. (In Uzbek)
- Atayev, F. (2024, 5-fevral). Dunyo va Turkiy til. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/maqolalar/farrux-atayev-dunyo-va-turkiy-til> (In Uzbek)
- Ibragimov, O, A. (2006). *Fergano - Tashkentskiye makomi*. Media Lend Nashriyoti. (In Uzbek)
- Karimova, F. (2021). The componential analyse of English and Uzbek lullabies based on grammatical signals. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*. 03 (06-15), 91-98. <https://doi.org/10.37547/tajssei/Volume03Issue06-15>
- Klark, P., & Hakimova, A. (2010). *Zoroastrizm*. Izdatelstvo Musiqa. (In Uzbek)
- Madraximov, A. (rejissyor). (2000, 22 avgust) 9-son [TV ko'rsatuv soni] "Olamga sayoxat" ko'rsatuv; O'zbekiston telekanali studiyasi (In Uzbek)
- Madraximov, A. (rejissyor). (2019, 12 fevral) 6-son [TV ko'rsatuv soni] "Olam va odam" ko'rsatuv; O'zbekiston telekanali studiyasi. (In Uzbek)
- Malikova, D. (2023). Xonandalarni shakllanishida ovozni yo'lga qo'yishning o'rni xususida (I. Yo'ldoshev & S. Jumayev, Mas'ul muxarrirlar). *Ta'limida ovozni yo'lga qo'yish masalalari respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami* (b. 91-98). Bookmany Print MChJ Bosmaxonasi. (In Uzbek)
- Matyakubov Botir. (2024). *Dostonlarning musiqiy xususiyatlarini o'rganish: Musiqiy oliy o'quv yurtlarining doston ijrochiligi ixtisosligi bakalavr bosqichi talabarlari uchun o'quv qo'llanma* (I-Kitob). Musiqa nashriyoti. (In Uzbek)
- Matyakubov, I. B. (2018). *Xor va xorshunoslik*. Fan va Ta'lim Nashriyoti. (In Uzbek)
- Matyoqubov Botir. (2009). *Doston navolari*. Building Print Uk. (In Uzbek)
- Matyoqubov Botir. (2024). *Dostonlarning musiqiy hususiyatlarini o'rganish: Musiqiy oliy o'quv yurtlarining doston ijrochiligi ixtisosligi bakalavr bosqichi talabarlari uchun o'quv qo'llanma* (II-Kitob). Musiqa Nashriyoti. (In Uzbek)
- Musiqa cholg'u asboblari. (25-May 2019). Wikipediada. https://uz.wikipedia.org/wiki/Musiqa_cholg'u_asboblari (In Uzbek)
- Qo'shiq. (4-aprel 2021). Vikilug'atda. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Qo%CA%BBshiq> (In Uzbek)
- Snorovka.com web sayti. Literatura. 1-sentyabr 2021. <https://snorovka.com/literatura/12760> (In Uzbek)
- Sof.uz elektron gazetasi. Rozental effekti: bola ruhiyatini sindirmang! 8-noyabr 2019. <https://www.sof.uz/post/rozental-effekti-bola-ruhiyatini-sindirmang> (In Uzbek)
- Yunusov, R. (1992). *Makomi i mugami*. Fan Nashriyoti. (In Uzbek)
- Yusupova, D. (2022). *Aruz va mumtoz poetikaga kirish*. Akademnashr Nashriyoti. (In Uzbek)